

ITALIYADA FASHISTIK TUZUMNING VUJUDGA KELISHI

Z. S. Shomansurova

O'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti,
"Jahon tarixi" kafedrası o'qituvchisi

A.Sh. Gapparov

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti
4-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19758066>

ANNOTATSIYA. Birinchi jahon urushidan keyin Italiyada yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz, ishsizlik, inflyatsiya va siyosiy beqarorlik jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. Aynan shunday sharoitda Benito Mussolini boshchiligidagi fashistlar harakati kuchayib bordi. Ular tartib, kuchli davlat va milliy birlik g'oyalarini ilgari surib, keng xalq ommasini o'ziga jalb qila oldi. 1922-yilda "Rimga yurish" natijasida fashistlar hokimiyatni egallab, totalitar tuzumni shakllantirdi. Fashistik rejim siyosiy muxolifatni bostirish, matbuotni nazorat qilish va yagona partiyaviy tizimni o'rnatish orqali mustahkamlandi. Annotatsiyada, shuningdek, fashizmning ideologik asoslari, uning jamiyat hayotiga ta'siri va Italiya tarixidagi o'rni yoritiladi.

KALIT SO'Z: Italiya fashizmi, Birinchi jahon urushi, Antanta, Vittoria Mutilata, inflatsiya.

THE EMERGENCE OF THE FASCIST REGIME IN ITALY

ABSTRACT. After the World War I, Italy faced an economic crisis, unemployment, inflation, and political instability, which intensified public dissatisfaction. In such conditions, the fascist movement led by Benito Mussolini began to gain strength. They promoted ideas of order, a strong state, and national unity, successfully attracting broad masses of the population. In 1922, as a result of the March on Rome, the fascists seized power and established a totalitarian regime. The fascist regime was strengthened by suppressing political opposition, controlling the press, and establishing a one-party system. The annotation also highlights the ideological foundations of fascism, its impact on society, and its place in the history of Italy.

KEYWORDS: Italian fascism, World War I, Entente, Mutilated Victory, inflation.

Kirish

Ushbu maqolada Birinchi jahon urushi va Italiyadagi siyosiy-iqtisodiy inqiroz, Benito Mussolining siyosiy faoliyat maydoniga chiqishi, fashistik partiyaning shakllanishi va fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan bir qatorda "Rimga yurish" voqealari haqida ko'pgina ma'lumotlarga ega bo'lamiz. XX asr boshlarida Yevropa davlatlari o'rtasidagi siyosiy raqobat, iqtisodiy manfaatlar to'qnashuvi va millatchilik g'oyalarining keskinlashuvi Birinchi jahon urushining boshlanishiga turtki bo'lgan muhim omillardan edi. Ushbu murakkab jarayonlarda Italiya o'zining o'zgacha siyosiy pozitsiyasi, doimiy ravishda o'zgarib turuvchi tashqi siyosat strategiyasi va ichki siyosiy qarama-qarshiliklari bilan alohida o'rin tutgan.

Birinchi jahon urushi Italiya tarixida chuqur siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'lgan muhim burilish nuqtasi bo'ldi. Urush yakuniga kelib mamlakat iqtisodiy tanazzulga yuz tutdi, sanoat ishlab chiqarishi pasaydi, inflyatsiya darajasi oshdi va ishsizlik keng miqyosda kuchaydi. Bu holat aholi turmush darajasining keskin pasayishiga olib keldi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, urushdan keyingi yillarda yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda siyosiy beqarorlik ham Italiyada keskinlashdi. Hukumatlarning tez-tez almashinuvi, parlamentdagi nizolar va ijro hokimiyatining zaifligi jamiyatda markaziy

hokimiyatga nisbatan ishonchsizlikni kuchaytirdi. Natijada, mavjud siyosiy tizim jamiyat muammolarini hal etishda samarasiz ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. Shuningdek, Vittoria Mutilata tushunchasi Italiya jamiyatida keng tarqalib, milliy ranjish va norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. Italiya urushda g'alaba qozongan bo'lsa-da, kutilgan hududiy va siyosiy manfaatlarga to'liq erisha olmagan aholi orasida adolatsizlik hissini yuzaga keltirdi¹.

Mazkur omillar fonida Benito Mussolini boshchiligidagi fashistik harakat qisqa vaqt ichida ommalashdi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fashistlar tartib, kuchli davlat va milliy birlik g'oyalari ilgari surish orqali turli ijtimoiy qatlamlar, xususan, urushdan norozi bo'lgan askarlar, o'rta sinf va ishchilarni o'ziga jalb qila oldi. 1922-yilda yuz bergan Rimga yurish voqeasi Italiyada siyosiy hokimiyatning keskin o'zgarishiga olib keldi. Natijada fashistlar hokimiyat tepasiga kelib, qisqa vaqt ichida siyosiy muxolifatni bostirish, matbuotni nazorat qilish va yagona partiyaviy tizimni joriy etish orqali totalitar tuzumni shakllantirdi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni tasdiqlaydiki, Italiyada fashistik tuzumning vujudga kelishi ko'p omilli jarayon bo'lib, unda iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik, millatchilik g'oyalari va urushdan keyingi norozilik kayfiyatlari hal qiluvchi rol o'ynagan. Ushbu natijalar mavzuning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi va fashizmning tarixiy ildizlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Bundan tashqari, tadqiqotda mantiqiy-tahlil, umumlashtirish va induksiya-deduksiya usullaridan foydalanilib, Italiyada fashizmning vujudga kelish sabablari va uning jamiyat hayotiga ta'siri ilmiy asosda yoritildi. Manbalar bilan ishlashda esa tarixiy hujjatlar, ilmiy adabiyotlar va zamonaviy tadqiqotlar tahliliga tayanildi. Umuman olganda, qo'llanilgan metodologiya tadqiqot mavzusini har tomonlama, chuqur va xolis o'rganish imkonini berdi².

Birinchi jahon urushi boshlanishi arafasida Italiya uchlik ittifoqi – Germaniya va Avstriya-Vengriya bilan tuzilgan harbiy-siyosiy blok a'zosi bo'lsa-da, bu ittifoq doirasidagi hamkorlik kuchsiz, o'zaro ishonch zaif va manfaatlar uyg'unlashmagan edi. Ayniqsa, Avstriya-Vengriya bilan aloqalar tarixan murakkab bo'lib, ikki davlat o'rtasidagi hududiy ziddiyatlar – Trentino, Triyest, Istriya va Janubiy Tirol masalasi – Italiya tashqi siyosatida keskin muammolardan biri bo'lib kelgan. 1914-yilda urush boshlangach, Italiya o'zining murakkab vaziyatini hisobga olib, neytrallik e'lon qildi³. Ammo 1915-yilga kelib, mamlakat ichida kuchayib borayotgan millatchilik kayfiyati, hududiy kengayish g'oyalari, shuningdek, Antanta davlatlarining katta hududiy va'da berishi Italiya siyosatini keskin o'zgartirib yubordi. London shartnomasining imzolanishi bilan Italiya Avstriya-Vengriyaga qarshi urushga kirdi. Bu qaror Italiyada ijtimoiy-siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul va xalq noroziligini keltirib chiqardi. Urushdagi yirik yo'qotishlar, armiyaning harbiy tayyorligi pastligi, mag'lubiyatlar bilan kechgan yillar Italiyani urushdan keyingi inqiroz sari olib keldi. 1918-yilda g'alaba qozongan bo'lsa-da, Versal konferensiyasi Italiyaga va'da qilingan hududlarning hammasini bermadi. Bu holat “qattaifadagi g'alaba” yoki “yaralangan g'alaba” (vittoria mutilata) deb ataldi va keyinchalik Italiyada fashizmning keskin ko'tarilishiga zamin yaratdi. Birinchi jahon urushi Italiya tarixida tub burilish yasagan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga boy davr bo'ldi. Urush boshlanganda neytral pozitsiyani egallagan Italiya qisqa vaqt ichida o'z strategiyasini

¹ Mussolini and Italian Fascism, *Journal of Contemporary History*, Vol. 58, No. 2, 2023, pp. 354–362.

² Gilbert Allardyce, What Fascism Is Not: Thoughts on the Deflation of a Concept, *The American Historical Review*, Vol. 84, No. 2, 1979, pp. 367–388.

³ Croce and Beyond: Italian Intellectuals and the First World War, *The International History Review*, Vol. 3, No. 2, 1981, pp. 201–235.

o'zgartirib, Antanta tomonida urushga qo'shildi. Bu qarorning asosiy omili irredentizm g'oyalari, milliy birlikni mustahkamlash istagi va Italiya elitasining hududiy kengayish haqidagi orzulari edi. Biroq urush davomida mamlakat juda katta yo'qotishlarga uchradi, iqtisodiyot tanazzulga yuz tutdi, ichki siyosiy muxolifat kuchaydi. Ulug' urush 4 yil davomida butun dunyodagi millionlab odamlar hayotini, shuningdek, urush bo'layotgan hududlardagi iqtisodiyotni ham vayron etdi⁴.

Urush qishloq xo'jaligida ham o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu ham texnik va ilmiy darajalarda, shuningdek frontga safarbar etilgan ishchilar yetishmasligi edi. Birinchi jahon urushi Italiyaning oziq-ovqat importini sezilarli darajada buzishga olib keldi.

Bundan tashqari Birinchi jahon urushi oxirida barcha urushayotgan mamlakatlarga ta'sir ko'rsatgan salbiy iqtisodiy oqibatlardan biri bu ishsizlik edi. Bu muammolar 2 omilga sabab bo'ldi. Birinchisi ishchi kuchi taklifi ortishi, chunki frontdan qaytganlar yashash uchun ishlashi kerak edi. Yana biri esa Sanoat korxonalarida ishchi kuchiga bo'lgan talab hukumatning urush davrida talabni kamaytirishi tufayli kamaydi. Bu esa ishsizlik darajasini oshirishga olib keldi. Bu oxirgi muammolar aholi jon boshiga o'rta daromadning pasayishiga olib keldi. Aholining ancha qismi esa ish haqi olmay beqaror turmush sharoitini kechirishiga olib keldi. Oqibatda bu holat iqtisodiyotning tiklanishi va birinchi navbatda bozor talabining sekinlashishiga olib keldi⁵.

XX asrning birinchi choragi jahon tarixida keskin siyosiy burilishlar davri bo'ldi. Birinchi jahon urushi yakunlari Yevropaning ko'plab davlatlarida chuqur iqtisodiy va ijtimoiy inqirozlarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, Italiya bu jarayonlardan og'ir zarar ko'rgan davlatlardan biri bo'lib, urushdan keyingi siyosiy beqarorlik va iqtisodiy tanazzul mamlakatda radikal siyosiy harakatlarning kuchayishiga sabab bo'ldi. Ana shunday sharoitda fashistik harakat shakllandi va 1922-yilda hokimiyat tepasiga keldi⁶.

Urushdan keyingi yillarda Italiya konstitutsion monarxiya sifatida faoliyat yuritayotgan bo'lsa-da, davlat boshqaruvi mexanizmlari amalda samarasiz edi. 1919–1922-yillar oralig'ida hukumatlar tez-tez almashib, ijro hokimiyati siyosiy irodasizlik holatiga tushib qoldi. Parlamentdagi partiyalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar qonun chiqarish jarayonini izdan chiqardi. Shu sababli davlat jamiyatdagi muammolarga o'z vaqtida va qat'iy javob bera olmadi. Bu holat markaziy hokimiyat obro'sining pasayishiga olib keldi.

Birinchi jahon urushidan keyingi Yevropa siyosiy makoni beqarorlik, ijtimoiy tarqoqlik va davlat boshqaruvida chuqur inqirozlar bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, Italiya misolida bu jarayon an'anaviy siyosiy institutlarning zaiflashuvi va yangi, radikal kuchlarning hokimiyat sari yo'l ochib berishi bilan namoyon bo'ldi. 1922-yilda sodir bo'lgan “Rimga yurish” ko'pincha qurolli to'ntarish sifatida talqin qilinadi, biroq tarixiy tahlil shuni ko'rsatadiki, bu voqea aslida zo'ravonlik bilan mustahkamlangan, ammo qonuniy shaklga ega bo'lgan hokimiyat transferi edi.

Fashistlarning hokimiyat tepasiga kelishi tasodifiy hodisa emas, balki urushdan keyingi iqtisodiy inqiroz, siyosiy beqarorlik va jamiyatdagi keskin ijtimoiy qarama-qarshiliklar natijasi

⁴ La lezione di Versailles e l'Italia. Alcune riconsiderazioni, *Ricerche di storia politica*, Vol. 2, No. 3, 1999, pp. 355–370.

⁵ Antonio Salandra and the Politics of Italian Intervention in the First World War, *European History Quarterly*, Vol. 15, No. 2, 1985, pp. 157–173.

⁶ Gramsci's Interpretation of Fascism, *Journal of the History of Ideas*, Vol. 41, No. 4, 1980, pp. 615–633.

edi. Urush Italiyada sanoat jamiyatining paydo bo'lishida muhim burilish nuqtasi bo'ldi. 1915-1918 yillar oralig'ida mehnat dunyosi, ta'kidlanganidek, o'zgarishlar va qarama-qarshiliklar, an'analar va zamonaviylik bilan ajralib turadigan o'ziga xos yangi "sanoat inqilobi" ni boshdan kechirdi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Italy at War, 1915–1918, in: *The Economics of World War I*, 2005, p. 297.
2. Antonio Salandra and the Politics of Italian Intervention in the First World War, *European History Quarterly*, Vol. 15, No. 2, 1985, pp. 157–173.
3. La lezione di Versailles e l'Italia. Alcune riconsiderazioni, *Ricerche di storia politica*, Vol. 2, No. 3, 1999, pp. 355–370.
4. Croce and Beyond: Italian Intellectuals and the First World War, *The International History Review*, Vol. 3, No. 2, 1981, pp. 201–235.
5. “More than Ever, We Feel Proud to Be Italians”: World War I and the New Haven “Colonia,” 1917–1918, *Journal of American Ethnic History*, Vol. 20, No. 2, 2001, pp. 70–106
6. Mussolini and Italian Fascism, *Journal of Contemporary History*, Vol. 58, No. 2, 2023, pp. 354–362.
7. Gramsci's Interpretation of Fascism, *Journal of the History of Ideas*, Vol. 41, No. 4, 1980, pp. 615–633.
8. Gilbert Allardyce, What Fascism Is Not: Thoughts on the Deflation of a Concept, *The American Historical Review*, Vol. 84, No. 2, 1979, pp. 367–388.
9. William Eckhardt, The Values of Fascism, *Journal of Social Issues*, Vol. 24, No. 1, 1968.